

**TEXNOLOGIYA DARSLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.**

**Xo'jamova Bashorat Abduvaliyevna**  
*Qashqadaryo viloyat Shahrisabz shahar*  
*7- umumiy o'rta ta'lim maktabining*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada texnologiya darslarini o'qitish samaradorligini oshirishda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati bayon qilingan.*

**Kalit so'zlar.** *Axborot kommunikatsion texnologiyalar, texnologiya, amaliy mehnat, televizor, radio, audio-video yozuv, telefon.*

Zamonaviy axborot texnologiyalari o'z muhitida axborot ob'ektlarini, ularning o'zaro aloqasini, axborotlarni yaratish, tarqatish, qayta ishlash, to'plash texnologiyalari va vositalarini, shuningdek axborot jarayonlarining tashkiliy va huquqiy tarkibini mujassamlashtiradi. Hozirgi kunda o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning imkoniyatlari va talablarini inobatga olishi zarur. O'qituvchi tomonidan targ'ib etilayotgan ta'lim va tarbiya tizimi shaxsga yo'naltirilgan xarakterda ega bo'lishi, ya'ni shaxsning har xil xususiyatlari va sifatiga e'tibor qilingan holda tabaqalashtirilgan bo'lishi kerak.

“Texnologiya” darsligi insonlar hayotida muhim o'rin tutuvchi amaliy mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko'rishda muhim o'rin tutadi. Voyaga yetib, qaysi kasbni egallamang, kim bo'lmang, “Texnologiya” fanidan olgan bilim va ko'nikmalaringiz Sizga hayotda, albatta, naf keltiradi. “Texnologiya” darslarida materialshunoslik, asbob-uskunalar, moslamalar va ulardan foydalanishga oid bilimlarni o'zlashtirasiz. Mahsulot ishlab chiqarish va uyro'zg'or buyumlarini ta'mirlashga oid ko'nikma va malakalarga ega bo'lasiz. O'quvchilarning turli materiallarga ishlov berish usullarini egallashida kerak bo'ldigan qobiliyatlar va ularni shakllantirishga doir jihatlari keltirib o'tilgan. Zero, materiallarga ishlov berish bilan bog'liq umummehnat ko'nikmalari har bir inson hayotida muhim o'rin tutadi. Jamiyatimizning har bir a'zosining bilim va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarishga qaratilgan bozor munosabatlarining rivojlanib borayotganligi bu ko'nikmalarining zaruratini yanada oshirmoqda.

Texnologiya fanini o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari bor. O'quvchilarni texnologiya fanini to'liq o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion- pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar hamda ishchi holatdagi mashinalarning ishlab chiqarishdagi namunalari va maketlaridan foydalanilinish, texnologiya faniga oid televizor, radioda berilgan eshittirishlarni ko'rish, o'rganilgan ish usullarini bajarish, jurnal va gazetalarda berilgan ma'lumotlarni o'rganib borish, texnologiya faniga oid atamalarni topishda media vositalardan foydalanib, didaktik topshiriqlarni bajarish axborot manbalaridan (televizor, radio, audio-video yozuv, telefon) foydalana olish; fayllarni ochishda media-madaniyatga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizningcha texnologiya darslarida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish katta ijobiy natija beradi. Chunki oldin o‘quvchilarga texnologiya darslarida amaliy mashg‘ulotlar jarayonida buyumlar tayyorlash jarayonini o‘qituvchi tomonidan birma-bar namoyish qilib berilar edi, bu ortiqcha vaqt sarflanishiga, ayrim paytlarda o‘qituvchining qayta ko‘rsatib berishiga ham to‘g‘ri kelar edi. Bugungi kunda esa axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanib tasvirga olingan mehnat operatsiyalarining videodarslarini o‘quvchilarga havola etib, o‘quvchilar ishini o‘qituvchi tomonidan bemaol nazorat qilish imkonini beradi, o‘quvchilarning bilim darajalarini sezilarli darajada oshirishga imkon beradi. Axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, o‘quvchilarga malakali duradgorlar, chilangarlar, oshpazlar, tikuvchilar va turli sohadagi hunarmandlarimiz tomonidan bajarilgan o‘quv mashg‘ulotlari “Master klass” larni namoyish etish orqali ularda turli xil mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish, kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini ham yaxshi yo‘lga qo‘yish imkoniyatini beradi. Biz yuqorida texnologiya darslarida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning ayrimlarini ko‘rsatib o‘tdik.

Xulosa qilib aytganda texnologiya darslarida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan keng foydalanilsa, o‘quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo‘llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllanadi, texnologiya ta’limi darslari sifati samarali bo‘ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: Nihol nashriyoti, 2016.
2. Qo‘ysinov O.A., V.N. Sattorov, H.S.Yakubova. Mehnat ta’limidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasi. (Metodik qo‘llanma). TDPU, 2011